

## VIII.XIZMATLAR

2024- yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 3 632,9 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish 116,8 foizni tashkil etdi.

### Xizmatlar sohasida jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar, birlikda (2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra)



2024- yil 1-aprel holatiga ko'ra xizmat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining (18 237 birlikni) 15 060 birligi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

### XIZMATLAR SOHASINI STATISTIK HISOBI

**Xizmatlar sohasi bu** — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'idir.


**Xizmatlar sohasi**, moddiy ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, tovarlardan farqli o'laroq, xizmatlar asosan bir vaqtning o'zida ishlab chiqariladi va iste'mol qilinadi va ularni saqlash man etiladi. Ikkinchidan, xizmat ko'rsatish ko'pincha mahsulotlar ishlab chiqarishga ketgan vaqtdan farqlanadi, garchi sanoatda texnik xizmat ko'rsatish roli ortib bormoqda, bu uskunalarni ta'mirlash, sotishdan keyingi xizmatlar va tovarlarni sotish bilan bog'liq boshqa xizmatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Aytish joizki, ko'p hollarda xizmatda mahsulot elementi mavjud, xuddi mahsulot sotishda xizmat elementi mavjud bo'lgani kabi.

**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

**2024- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida  
ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi**

<i>Shahar va tumanlar nimui</i>	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>3 632,9</b>	<b>116,8</b>	<b>100,0</b>
Urganch shahri	1 342,0	122,4	36,9
Xiva shahri	180,7	113,4	5,0
<i>tumanlar:</i>			
Bog‘ot	202,5	114,3	5,6
Gurlan	173,0	111,9	4,8
Qo‘shko‘pir	186,6	116,5	5,1
Urganch	279,4	111,1	7,7
Hazorasp	271,2	119,6	7,5
Tuproqqal‘a	76,1	113,1	2,1
Xonqa	245,5	112,0	6,7
Xiva	191,7	111,3	5,3
Shovot	185,3	115,0	5,1
Yangiariq	159,9	111,8	4,4
Yangibozor	139,0	113,7	3,8

**Aholi jon boshiga xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari**



**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati**

(2024- yil yanvar- mart)	Hajm, ming. soʻmda	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	1 817,2	114,6
Urganch sh	8 748,4	120,0
Xiva sh	1 826,6	111,3
Bog'ot	1 148,2	112,0
Gurlan	1 098,2	110,0
Qo'shko'pir	1 022,6	114,4
Urganch	1 305,8	108,9
Hazorasp	1 313,7	117,4
Tuproqqal'a	1 279,0	110,5
Xonqa	1 234,8	110,0
Xiva	1 236,0	109,2
Shovot	1 025,8	112,9
Yangiariq	1 296,4	109,9
Yangibozor	1 499,4	111,6

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarni rivojlantirish o'rtacha aholi jon boshini rivojlanish ko'rsatkichiga muhim ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, aholi soni nisbatan kam bo'lgan Bog'ot va Urganch tumanlarida aholi jon boshiga ko'rsatkichlar aholi zich joylashgan tumanlar: Urganch, Urganch va Urganch tumanlariga qaraganda yaxshiroq ko'rinadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoati rivojlangan hududlar (qazib olish sanoati bundan mustasno) Urganch va Urganch tumanlari hamda, Xiva shahrida xizmatlar sohasining aholi jon boshiga o'rtacha ko'rsatkichlari Qo'shko'pir, Bog'ot va Hazorasp tumanlariga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatmoqda.

**IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA ISHLAB CHIQRILGAN XIZMATLAR**

Bugungi kunda xizmatlar sohasi zamonaviy milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biridir. Ushbu tarmoq an'anaviy faoliyat bilan cheklanib qolmaydi, u jamiyat hayotida o'z ishtirokini doimiy ravishda kengaytirib boradi, ijtimoiy ishlab chiqarishga integratsiyalashgan, shuningdek, iqtisodiyotning deyarli barcha sohalari bilan o'ziga xos aloqalar bilan bog'langan.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan bozor xizmatlari

Xizmat turlarining nomi	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda		Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
	2023- y yanvar-mart	2024- y yanvar-mart		
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>2 832,9</b>	<b>3 632,9</b>	<b>100,0</b>	<b>116,8</b>
<i>shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>				
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	161,1	195,4	5,4	117,9
moliyaviy xizmatlar	638,8	955,5	26,3	141,6
transport xizmatlari	625,1	828,5	22,8	113,0
<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmatlari	584,0	764,7	21,0	108,8
yashash va ovqatlanish xizmatlari	90,1	122,4	3,4	111,5
savdo xizmatlari	655,4	753,1	20,7	106,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	67,6	81,0	2,2	113,4
ta'lim sohasidagi xizmatlar	156,1	167,6	4,6	98,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	62,2	70,6	1,9	107,8
ijara xizmatlari	47,6	56,9	1,6	110,1
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	114,2	139,4	3,8	108,3
shaxsiy xizmatlar	101,1	125,5	3,5	109,7
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	48,6	56,1	1,6	106,1
boshqa xizmatlar	65,0	80,9	2,2	115,6

2024- yil yanvar – mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida moliyaviy xizmatlari 26,3 %, transport xizmatlari – 22,8 %, savdo xizmatlar – 20,7 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 5,4 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar – 4,6 % ni egallaydi.


**Taqqoslash uchun:** 2023- yil yanvar-mart oylarida xizmatlarning umumiy hajmida savdo xizmatlari 23,1 %, transport xizmatlari – 22,1 %, moliyaviy xizmatlar – 22,5 %, ta'lim xizmatlari – 5,5 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 5,7 % ni tashkil etdi.

## Savdo xizmatlari

**Savdo xizmatlari** – hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalar, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

2024-yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 753,1 mlrd. soʻmga yetdi. 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning oʻsish surʻati 106,3 % ga yetdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 20,7 % ni tashkil etdi.

### Xizmatlar hajmi, mlrd. soʻmda



### Shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlari hajmi (2024-yil yanvar-mart)


Shahar va tumanlar	Hajm mlrd. soʻmda	Oʻsish surʻati, 2023- yil yanvar-mart oyiga nisbatan % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>753,1</b>	<b>106,3</b>
Urganch shahri	167,1	
<i>Xiva shahri</i>	43,8	101,7
<i>tumanlar:</i>		108,5
Bogʻot	49,0	109,8
Gurlan	51,3	109,0
Qoʻshkoʻpir	49,7	106,9
Urganch	77,7	102,2
Hazorasp	58,9	101,8
Tuproqqalʼa	22,2	107,4
Xonqa	68,7	112,4
Xiva	44,3	109,3
Shovot	44,2	110,8
Yangiariq	39,5	107,7
Yangibozor	36,7	110,6

## Avtomobil transporti xizmatlari

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo‘lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo‘lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo‘yicha xizmatlar va ko‘chish bo‘yicha xizmatlar kiradi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 828,5 mlrd. so‘mga yetdi.

2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o‘sinh sur‘ati 113,0 % ga yetdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 22,8 % ni tashkil etdi.



### Shahar va tumanlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari (2024- yil yanvar-mart)

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda	Ulushi, % da	O‘sinh sur‘ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>828,5</b>	<b>100,0</b>	<b>113,0</b>
Urganch sh.	182,5	22,0	104,2
Xiva sh.	26,5	3,2	130,2
Bog‘ot	67,8	8,2	116,2
Gurlan	55,9	6,7	115,0
Qo‘shko‘pir	58,2	7,0	117,5
Urganch	67,6	8,2	119,2
Hazorasp	66,6	8,0	114,6
Tuproqqal‘a	20,4	2,5	110,4
Xonqa	81,7	9,9	119,8
Xiva	56,6	6,8	110,9
Shovot	49,2	5,9	111,1
Yangiariq	47,9	5,8	116,6
Yangibozor	47,6	5,8	112,1

## Moliyaviy xizmatlar

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to‘lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo‘yicha xizmatlari uchun to‘lanadigan haq hisobiga ko‘ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlarning hajmi 955,5 mlrd. so‘mga yetdi. Jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi 26,3 % ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning o‘shish sur‘ati 141,6 % ni tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlarning tarkibi (2024- yil yanvar-mart)



Moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari (pul mablag'larini olish va qayta taqsimlash bo'yicha xizmatlar) ustunlik qiladi. 2024- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi 93,6 % ni tashkil etdi.


### Shahar va tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi (2024- yil yanvar-mart)

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>955,5</b>	<b>100,0</b>	<b>141,6</b>
Urganch sh	568,5	59,5	144,9
Xiva sh	17,5	1,8	134,6
Bog'ot	24,7	2,6	128,0
Gurlan	18,7	2,0	136,9
Qo'shko'pir	25,3	2,7	142,4
Urganch	41,3	4,3	129,0
Hazorasp	93,7	9,8	145,4
Tuproqqal'a	13,1	1,4	138,2
Xonqa	39,3	4,1	132,2
Xiva	33,5	3,5	135,7
Shovot	38,8	4,0	141,5
Yangiariq	26,6	2,8	128,4
Yangibozor	14,5	1,5	138,9

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** – amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 195,4 mlrd. so‘m darajasida qayd etildi va 2023- yilning yanvar-martiga nisbatan o‘shish sur‘ati 117,9 % ni tashkil etdi.



### Shahar va tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024-yil yanvar-mart)

Shahar va tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024-yil yanvar-mart)	Hajm, mlrd. so‘mda	Ulushi, % da	O‘shish sur‘ati, % da
Xorazm viloyati	195,4	100,0	117,9
Urganch sh.	41,4	21,2	122,5
Xiva sh.	8,5	4,3	118,6
Bog‘ot	14,5	7,4	115,9
Gurlan	13,2	6,8	116,5
Qo‘shko‘pir	15,2	7,8	115,5
Urganch	18,0	9,2	114,0
Hazorasp	16,9	8,7	116,6
Tuproqqal‘a	4,9	2,5	115,1
Xonqa	16,5	8,4	117,2
Xiva	13,1	6,7	118,5
Shovot	14,9	7,6	117,5
Yangiariq	7,9	5,3	118,0
Yangibozor	7,9	4,1	120,8




## Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**Mazkur seksiya** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali davlat tomonidan beriladigan yoki xususiy turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi. Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'limni qo'llab-quvvatlash faoliyati va boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi xizmatlar faoliyatini** amalga oshirishda ko'rsatilgan bozor xizmatlari, jumladan, masofaviy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish qiymati (kontrakt o'qitish shakli) aks ettiriladi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 167,6 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 98,5 % ni tashkil etgan.



### Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi (2024-yil yanvar-mart)


Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>167,6</b>	<b>100,0</b>	<b>98,5</b>
Urganch sh	94,0	56,1	91,5
Xiva sh	33,6	20,1	103,6
Bog'ot	4,2	2,5	112,0
Gurlan	1,6	0,9	103,0
Qo'shko'pir	3,6	2,2	139,5
Urganch	7,6	4,5	120,9
Hazorasp	3,9	2,3	120,9
Tuproqqal'a	1,4	0,9	115,8
Xonqa	6,1	3,6	96,6
Xiva	2,4	1,4	125,1
Shovot	2,9	1,7	108,5
Yangiariq	3,5	2,1	107,5
Yangibozor	2,8	1,7	123,8

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2024- yilning yanvar-mart oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 70,6 mlrd. so'mga ya'ni, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining 1,9 % iga yetdi. 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 107,8 % ni tashkil etgan.

**Taqqoslash uchun:** 2023- yilda ushbu xizmatlar hajmi 62,2 mlrd. so'mni yoki ularning umumiy hajmining 2,2 % ini tashkil etgan.



### Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi, (2024- yil yanvar-mart)


	Hajm mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>70,6</b>	<b>100,0</b>	<b>107,8</b>
Urganch shahri	36,7	52,0	110,8
<i>Xiva shahri</i>	1,5	2,1	107,0
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	2,0	2,8	104,7
Gurlan	1,9	2,7	101,9
Qo'shko'pir	2,2	3,1	111,3
Urganch	14,2	20,1	101,2
Hazorasp	1,3	1,9	109,2
Tuproqqal'a	0,5	0,7	105,8
Xonqa	3,1	4,4	112,9
Xiva	3,4	4,8	106,7
Shovot	1,7	2,4	108,7
Yangiariq	1,1	1,6	104,1
Yangibozor	1,0	1,4	105,3

Sog'liqni saqlash sohasidagi ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi Urganch shahrida – 52,0 %, Urganch tumanida – 20,1 %, Xiva tumanida – 4,8 % ni tashkil etadi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi** – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.



2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 2024-yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 32,3 mlrd. so'mga oshib, 122,4 mlrd. so'mga yetdi, o'sish sur'ati esa 111,5 % ni tashkil etdi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

Yashash bo'yicha xizmatlar

82,6 %

17,4 %

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar


### Shahar va tumanlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-mart)

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>122,4</b>	<b>100,0</b>	<b>111,5</b>
Urganch sh	54,8	44,7	110,0
Xiva sh	16,7	13,6	117,1
Bog'ot	3,2	2,6	110,7
Gurlan	2,5	2,1	111,2
Qo'shko'pir	1,3	1,1	111,5
Urganch	19,0	15,5	112,7
Hazorasp	4,5	3,7	110,7
Tuproqqal'a	2,3	1,9	116,9
Xonqa	2,4	2,0	110,9
Xiva	5,1	4,2	107,2
Shovot	5,8	4,7	110,6
Yangiariq	1,5	1,2	111,1
Yangibozor	3,3	2,7	110,1

## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi 81,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 2,2 % ni tashkil etdi. 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 113,4 % ni tashkil etgan.



### Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi (2024-yil yanvar-mart)

	Hajm mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>81,0</b>	<b>100,0</b>	<b>113,4</b>
Urganch shahri	21,6	26,7	119,7
Xiva shahri	4,9	6,1	114,5
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	4,5	5,5	103,7
Gurlan	5,1	6,3	106,6
Qo'shko'pir	6,4	7,9	114,7
Urganch	5,5	6,8	106,1
Hazorasp	7,1	8,8	117,6
Tuproqqal'a	2,6	3,2	114,5
Xonqa	4,6	5,7	100,1
Xiva	4,3	5,3	115,2
Shovot	4,3	5,3	113,9
Yangiariq	4,4	5,4	115,2
Yangibozor	5,7	7,0	114,2

Shahar va tumanlar o'rtasida ko'chmas mulk bilan bog'liq ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida Urganch shahrining ulushi 26,7 % ni tashkil etdi. Hazorasp 8,8 % ni va Qo'shko'pir tumanida 7,9 % ni tashkil etdi.


2023-yilga nisbatan ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning o'sish sur'ati Urganch shahrida – 119,7 % ga, Xiva shahrida – 114,5 % darajasida qayd etildi.

## Ijara xizmatlari


Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

2023-yil yanvar-martga nisbatan ijara xizmatlari hajmi 9,3 mlrd. so'mga oshib, 2024-yil yanvar-martda 56,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 1,6 % ni tashkil etdi. 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 110,1 % ni tashkil etgan.

Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda



O'sish sur'ati




Shahar va tumanlar kesimida ijara xizmatlar hajmi  
(2024-yil yanvar-mart)

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>56,9</b>	<b>100,0</b>	<b>110,1</b>
Urganch sh	20,4	35,8	110,2
Xiva sh	2,4	4,2	110,2
Bog'ot	3,7	6,5	
Gurlan	2,6	4,6	110,5
Qo'shko'pir	2,9	5,1	109,2
Urganch	3,7	6,5	109,7
Hazorasp	2,8	4,9	110,9
Tuproqqal'a	2,2	3,9	109,9
Xonqa	3,1	5,5	111,5
Xiva	3,3	5,8	107,3
Shovot	3,3	5,8	110,4
Yangiariq	4,0	7,0	109,7
Yangibozor	2,5	4,4	111,6

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyafzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

2024- yilning yanvar-mart oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 139,4 mlrd. so'm qayd etilib, 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 108,3 % ni tashkil etdi.



**Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati**  
(2024- yil yanvar-mart)

Urganch shahrida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 29,0 mlrd. so'mga yetdi.

2023-yilga nisbatan Urganch shahrida o'sish sur'ati 117,4 % ni, Xiva shahrida bu ko'rsatkich 109,4 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>139,4</b>	<b>100,0</b>	<b>108,3</b>
Urganch sh	29,0	20,8	117,4
Xiva sh	10,6	7,6	109,4
Bog'ot	15,9	11,4	109,0
Gurlan	10,1	7,3	103,8
Qo'shko'pir	9,3	6,7	106,3
Urganch	10,2	7,3	110,8
Hazorasp	6,7	4,8	110,0
Tuproqqal'a	2,9	2,1	112,0
Xonqa	8,8	6,3	102,3
Xiva	10,9	7,8	104,8
Shovot	8,3	6,0	105,0
Yangiariq	9,1	6,5	101,0
Yangibozor	7,6	5,4	101,6